

MADANIY INQIROZ TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.007>

Ozoda Alisher-qizi Mahmanazarova
ozodamahmanazarova308@gmail.com

Ilmiy rahbar: Z.Y.Arislanbayeva
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy inqiroz tushunchasi falsafiy, tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qadimgi manbalar, xususan Avestoda qayd etilgan ma'naviy tanazzul belgilarining mazmuni zamonaviy inqiroz nazariyalari bilan solishtiriladi. Shuningdek, I. A. Karimovning ma'naviy xavfsizlik, milliy o'zlik va ma'naviy uyg'unlik haqidagi qarashlari hamda Sh. M. Mirziyoyevning yangi davr ma'naviy siyosati doirasida ilgari surilgan konsepsiyalarning madaniy inqirozga qarshi kurashdagi roli yoritiladi. Globallashuv sharoitida yoshlar ongidagi o'zgarishlar, iste'molchilik mentaliteti, axborot xurujlari va milliy identitet muammolari zamonaviy madaniy inqirozning asosiy ko'rinishlari sifatida ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: madaniy inqiroz, ma'naviy tanazzul, milliy o'zlik, globallashuv, yoshlar ongidagi o'zgarishlar, ma'naviy siyosat

CULTURAL CRISIS AND ITS CONTEMPORARY MANIFESTATIONS

Ozoda Alisher qizi Mahmanazarova
ozodamahmanazarova308@gmail.com

Scientific Supervisor: Z.Y.Arislanbayeva
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article analyzes the concept of cultural crisis from philosophical, historical, and contemporary perspectives. Ancient sources, particularly the signs of spiritual decline noted in the *Avesta*, are compared with modern crisis theories. In addition, the views of I.A.Karimov on spiritual security, national identity, and moral harmony, as well as the concepts proposed within Sh.M.Mirziyoyev's new-era cultural policy, are highlighted with regard to their role in counteracting cultural crises. In the context of globalization, changes in youth consciousness, consumerist mentality, information attacks, and issues of national identity are examined as the main manifestations of the contemporary cultural crisis.

Keywords: cultural crisis, spiritual decline, national identity, globalization, changes in youth consciousness, cultural policy

Inqiroz jamiyat taraqqiyotida muayyan burilish nuqtasini anglatuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. U tizimning avvalgi holatda mavjud bo'la olmasligi, ichki ziddiyatlar keskinlashib, tub yangilanish zarurati yuzaga kelgan bosqich sifatida talqin qilinadi. Madaniy inqiroz esa jamiyatning ma'naviy hayoti, qadriyatlar tizimi va avlodlararo uzviylikdagi nomutanosibliklar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Inqiroz va madaniy inqiroz tushunchasini olimlar yondashuvi nuqtai nazaridan kurib chiqsak. Inqiroz - taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul. Har qanday obekt o'zining rivojlanishi mobaynida paydo bo'lish, ulg'ayish, pasayish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Har qanday tizim yoki (obyekt)ning nisbatan yuqori darajada shakllangan holatidan quyi darajadagi holatga o'tish jarayoni inqiroz davri deyiladi. Ijtimoiy tizimlardagi inqirozlarga differensial yondoshish zarur deb, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalaridagi inqirozlar, odatda, mustaqil ravishda ro'y beradi, ba'zan esa hammasi kompleks tarzda ham baravar bo'lishi mumkin. Bunday holda jamiyatning umumiy inqirozi boshlanadi deydi olimlarimiz.⁷

Madaniy inqiroz - jamiyatning ma'naviy va madaniy hayotida yuzaga keladigan chuqur ziddiyatlar, qadriyatlar tizimining izdan chiqishi va avlodlararo bog'liqlikning sustlashuvi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisadir. Falsafiy ensiklopediya talqinida inqiroz tizimning avvalgi holatda mavjud bo'la olmasligi, uning tubdan yangilanishi zarur bo'lgan keskin bosqich sifatida tavsiflanadi.⁸

Bundan kelib chiqib, inqiroz tushunchasi insoniyat tafakkurida qadimdan mavjud bo'lib, u jamiyat hayotida beqarorlik, ziddiyatlarning keskinlashuvi yoki mavjud tartibning izdan chiqishi bilan bog'liq bo'lgan burilish nuqtasini anglatgan. Falsafiy ensiklopediyada qayd etilishicha, inqiroz - tizimning ichki nomutanosibligi kuchaygan, yangilanmasdan yashay olmas darajada murakkab bosqichga kirgan holatdir.⁹ Madaniy inqiroz ham xuddi shu qonuniyatning ma'naviy-madaniy sohadagi ko'rinishi bo'lib, qadriyatlar muvozanatining buzilishi, ma'naviy bo'shliqning kuchayishi, jamiyatning ruhiy asoslaridagi izdan chiqishlar orqali namoyon bo'ladi.

Demak, inqiroz - taraqqiyotda pasayish, tanazzul va beqarorlik holatini ifodalaydi. Har qanday ijtimoiy tizim paydo bo'lish, rivojlanish, yuksalish va pasayish bosqichlarini bosib o'tadi. Madaniy inqiroz esa jamiyat ma'naviy poydevorining zaiflashuvi, qadriyatlar muvozanatining buzilishi va shaxs hamda jamiyat o'rtasidagi ma'naviy uyg'unlikning izdan chiqishi bilan xarakterlanadi.

Madaniy inqirozning tarixiy ildizlari qadimgi Sharq ma'naviy manbalaridan bo'lgan "Avesto"da ezgulik (asha) va yovuzlik (druj) o'rtasidagi kurash jamiyat

⁷ Ibrohimov, A. Jamiyatning inqirozlari va rivojlanish jarayonlari. — Toshkent: "Fan va texnika", 2008. — 45–50 b.

⁸ Falsafa. Ensiklopedik lug'at. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010. — 150–155-b.

⁹ Falsafa. Ensiklopedik lug'at. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010. — 152–153-b.

ma'naviy holatining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Yolg'on, adolatsizlik va tarbiyaning susayishi madaniy tanazzul belgisi sifatida ko'rsatiladi.

Qadimgi Sharq ma'naviy sarchashmalarida madaniy inqiroz belgilarini uchratishimiz mumkin. Masalan, Avestoda insoniyatning ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurashi tasvirlanar ekan, jamiyatda adolat, mehr, rostgo'ylik kabi fazilatlarning susayishi ma'naviy tanazzulning belgisi sifatida ko'rsatiladi. Ayniqsa yolg'onning kuchayishi, axloqiy me'yorlarning buzilishi, tarbiyaning zaiflashishi - jamoaning ma'naviy hayotida uzilish paydo qiluvchi omillar sifatida ta'riflanadi. Bu tasvir zamonaviy madaniy inqiroz nazariyasidagi "ma'naviy kodlarning buzilishi" tushunchasiga juda yaqin.¹⁰

Bu asarda madaniy inqiroz tushunchasi bevosita ishlatilmagan, ammo jamiyatning ma'naviy buzilishi va ijtimoiy tartibsizliklar bilan bog'liq tushunchalar orqali ifodalanadi. Avesto matnlarida insoniyat va jamiyat ikki asosiy kuch - aša (haqiqat, tartib, ezgulik) va druj (yolg'on, tartibsizlik, yovuzlik) o'rtasida abadiy kurashda tasvirlanadi. Aša jamiyatda adolat, rostgo'ylik, mehr-oqibat va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi kuch sifatida ko'rsatilsa, druj axloqiy me'yorlarning buzilishi, yolg'on va firibgarlik, tarbiya tizimining zaiflashishi orqali madaniy va ma'naviy inqiroz belgilarini keltirib chiqaradi.¹¹

Avesto matnlarida yosh avlodning noto'g'ri tarbiya olishi, jamiyatdagi adolat va tartib me'yorlarining susayishi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishi ijtimoiy va madaniy inqirozning boshlanishi sifatida talqin qilinadi.¹² "Druj"ning kuchayishi faqat jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga, balki shaxsning ruhiy va ma'naviy holatiga ham salbiy ta'sir qiladi.

Zamonaviy talqin nuqtai nazaridan, Avestodagi bu qarama-qarshiliklar madaniy inqiroz tushunchasiga moslashtiriladi: aša - ma'naviy barqarorlik, qadriyatlar tizimi va milliy o'zlik, druj esa global madaniyat bosimi, axborot shiddati, iste'molchilik mentaliteti va yoshlar ongidagi identifikatsiya muammolariga tenglashtiriladi. Shu tariqa, Avesto matnlari madaniy inqirozni ma'naviy va ijtimoiy barqarorlikka tahdid sifatida tushuntirishga imkon beradi va bu hodisaning tarixiy ildizlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Qadimgi Yunoniston shahar-davlatlarining (polislar) siyosiy va madaniy hayotidagi inqirozlar, masalan, Sparta va Afina o'rtasidagi urushlar davrida madaniy qadriyatlar va urf-odatlar tanglikka duch kelgan. Yunon faylasuflari - Platon va Aristotel jamiyatdagi adolat, tarbiya va ijtimoiy tartib masalalarini tahlil qilgan. Platonning "Davlat" nomli asarida ijtimoiy adolatning yo'qolishi va inson ruhiyatidagi ziddiyatlar madaniy inqirozga olib kelishi ko'rsatib o'tiladi.¹³

¹⁰ Avesto: Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. — T.: Sharq, 2001. — B. 85–120.

¹¹ Avesto. Yasna va Videvdat bo'limlari. — T.: Ma'naviyat, 2005. — B. 128–134.

¹² Avesto: Tarixiy adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. — T.: Sharq, 2001. — B. 128–134.

¹³ Platon. Davlat. Tarjimon: O. Xoldorov. — T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2012. — B. 227–230.

Rim imperiyasi davrining so'ngi asrlarida ichki ijtimoiy qarama-qarshiliklar, boy va kambag'al o'rtasidagi ziddiyat, madaniy qadriyatlarning pasayishi sababli kuchli madaniy inqirozga duch kelgan. Bu davrda Rimda madaniy merosni saqlashga qaratilgan me'moriy va san'at faoliyati orqali jamiyatni barqarorlashtirishga urinishlar bo'lgan.

O'rta asrlarning oxirlarida, ayniqsa 14-15-asrlarda "Qora o'lim" pandemiyasi (1347-1351) va diniy qarama-qarshiliklar tufayli madaniy inqiroz yuzaga kelgan. Insonlar qadriyat va hayotiy maqsadlarni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lishgan. Bu davr faylasuf va yozuvchilar - Dante Alighieri¹⁴ va Djovanni Boccaccio¹⁵ asarlarida jamiyatning ruhiy inqirozi aks etadi.

Renessans davri madaniy inqiroz va uyg'onishning uyg'unlashuvi sifatida qaraladi. An'anaviy feodal qadriyatlar va diniy nazariyalar bilan inson markaziyligini ilgari suruvchi yangi ilmiy va madaniy qarashlar to'qnashgan. Jumladan, Gukovskiy M.A. "Iskusstvo Vozrozhdeniya" nomli kitobida Leonardo da Vinchi va Mikelandjelo ijodi orqali Renessans davrida san'at madaniy inqirozdan chiqish va jamiyatni uyg'otish vositasi sifatida sharhlanadi.¹⁶

XX asr va modern dunyosida Ikkinchi jahon urushi va sovuq urush davri global miqyosda madaniy inqirozni kuchaytirilgan. Ijtimoiy qadriyatlarning izdan chiqishi, ekstremizm va mafkuraviy qarama-qarshiliklar zamonaviy madaniy inqirozning yorqin namunalari bo'lgan. Bu davrda Z. Bauman va A. Giddens nazariyalari ushbu jarayonlarni tushuntirishga qaratilgan. Bauman qadriyatlar barqaror emasligi va jamiyatda doimiy o'zgarish bilan bog'liq deb tushuntiradi.¹⁷ Shu bilan birga, Giddens shaxs identikligining murakkab va doimiy o'zgaruvchan muhitda shakllanishi madaniy inqirozga ta'sir qiladi degan fikrni ilgari surdi.¹⁸

Identiklik (ingl. identity - aynilik, o'zlik) - shaxs yoki guruhning "men kimman?", "biz kimmiz?" degan savollarga javob sifatida shakllanadigan barqaror tasavvurlar, qadriyatlar va o'ziga xos belgilar majmuasidir. U insonning o'zini anglashi, jamiyatdagi o'rni va boshqalar bilan munosabatini belgilaydi. Zamonaviy talqinda, ya'ni, falsafa va sotsiologiyada identiklik doimiy emas, balki o'zgaruvchan jarayon sifatida qaraladi. Masalan, Zigmunt Bauman uni "suyuq identiklik" deb atab, globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida inson o'z identikligini qayta-qayta tanlashga majbur bo'lishini ta'kidlaydi.

Identiklik - insonning ichki dunyosi bilan ijtimoiy muhit o'rtasidagi bog'lovchi tushuncha bo'lib, u shaxsning ma'naviy barqarorligi, madaniy o'zligini saqlashi va jamiyatda o'z o'rnini topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

¹⁴ Dante Alighieri. Божественная комедия.. — Oksford: Oxford University Press, 2008. — B. 45–52.

¹⁵ Boccaccio, Giovanni. Decameron. Everyman's Library Classics. — London: Everyman, 2009. — B. 12–18.

¹⁶ Gukovskiy M. A. Iskusstvo Vozrozhdeniya. — Moskva: Prosveshcheniye, 1985. — B. 112–145.

¹⁷ Bauman Z. Liquid Modernity. — Cambridge: Polity Press, 2000. — B. 45–56.

¹⁸ Giddens A. Modernity and Self-Identity. — Cambridge: Polity Press, 1991. — B. 60–67.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimov madaniy inqiroz muammosini chuqur falsafiy asosda yoritadi. Uning fikriga ko'ra, jamiyatdagi eng xavfli inqirozlar tashqi bosimlardan emas, balki inson ongidagi bo'shliq, milliy o'zlikning susayishi va ma'naviy tayanchlarning zaiflashishidan boshlanadi. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlanishicha, agar jamiyat ma'naviyatini mustahkamlamasa, uning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti ham beqaror bo'lishi muqarrar.¹⁹

Karimov ma'naviyatni inson va jamiyatning asosiy boyligi deb hisoblaydi va moddiy hayot bilan ma'naviyat o'rtasida uyg'unlikni saqlash zarurligini ta'kidlaydi. U globalizatsiya va axborot muhiti ta'siridan, milliy qadriyatlar zaiflashishidan ogohlantiradi va yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va ma'naviy ildizlarni saqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Karimov milliy g'oya va vatanparvarlikni madaniy barqarorlikning asosi deb biladi. Til va milliy meros yosh avlodning identikligini saqlash va milliy ruhni mustahkamlash vositasi sifatida ahamiyatli. Bu nuqta madaniy inqirozni faqat nazariy masala emas, balki davlat darajasida hal etilishi kerak bo'lgan amaliy muammo sifatida ko'rishga olib keladi.

Bugungi globallashuv jarayonlari madaniy inqirozning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Axborot oqimining cheksizligi, ommaviy madaniyatning kuchli ta'siri, virtual muloqotning ustunlikka chiqishi, yoshlar ongida o'zlikni anglashning zaiflashuvi eng muhim muammolar sirasiga kiradi. Iste'molchilik ideologiyasi "tez muvaffaqiyat", "ko'proq egalik qilish", "moda orqali o'zlikni belgilash" kabi qarashlarni shakllantiradi. Natijada insonning ma'naviy ehtiyojlari chetga suriladi, ma'naviy bo'shliq kuchayadi, ruhiy beqarorlik ortadi. Bu holat falsafiy talqinda "shaxsning o'z-o'zidan begonalashuvi" sifatida izohlanadi.

Shuningdek, madaniy inqirozning ko'plab olimlar va tarixiy shaxslar tomonidan turlicha talqinlari mavjud. Z. Bauman o'zining "Liquid Modernity" asarida "suyuq modernlik" nazariyasi orqali qadriyatlarning barqaror emasligi va jamiyatning doimiy o'zgaruvchan muhitda yashashi madaniy inqirozning kuchayishiga sabab bo'lishini tushuntiradi. U misol tariqasida, hozirgi zamon yoshlari va kattalar orasida doimiy raqobat, tezkor ish almashinuvi va shaxsiy hayotning doimiy o'zgarishi natijasida an'anaviy madaniy qoidalarning yetarli ta'sirga ega emasligini ko'rsatadi. Bauman ta'kidlaydiki, "suyuq" jamiyatlarda qadriyatlar qat'iylikni yo'qotadi, shaxslar doimiy ravishda o'z identitetini yangilab turishga majbur bo'ladi, bu esa madaniy inqirozning asosiy belgilaridan biridir.²⁰

A.Giddens o'zining "Modernity and Self-Identity" asarida globalizatsiya va texnologik taraqqiyotning shaxs identitetiga ta'sirini tahlil qiladi. Giddensning

¹⁹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. — B. 34–37.

²⁰ Bauman Z. Liquid Modernity. — Cambridge: Polity Press, 2000. — B. 45–67.

fikricha, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar shaxsning o'zini anglash jarayonini murakkablashtiradi, chunki shaxs doimiy ravishda turli madaniy va ijtimoiy modellarga moslashishga majbur bo'ladi. Misol sifatida, global ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilinadigan "ideal hayot" stereotiplari yoshlar ongida o'zlikni anglashning murakkabligiga sabab bo'ladi, bu esa madaniy inqirozning zamonaviy ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Giddens shuningdek, shaxs identiteti va madaniy qadriyatlar orasidagi nomutanosiblikni, shuningdek, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari orqali yuzaga keladigan madaniy bo'shliqni misol keltiradi.²¹

Semuel P. Huntington "The Clash of Civilizations" asarida madaniyatlar to'qnashuvi nazariyasi orqali madaniy inqirozning global oqibatlarini tushuntiradi. U dunyo bo'ylab madaniyatlararo ziddiyatlarni, g'arb madaniyati bilan boshqa madaniyatlar o'rtasidagi to'qnashuvni misol sifatida keltiradi. Xantingtonning fikricha, madaniy inqiroz faqat milliy darajada emas, balki global maydonda ham yuz beradi, chunki global axborot oqimlari, migratsiya va texnologik taraqqiyot milliy madaniyatning mustahkamligini zaiflashtiradi. U turli sivilizatsiyalar orasidagi qadriyatlar to'qnashuvini, masalan, g'arb va sharqning siyosiy, diniy va ma'naviy qadriyatlaridagi tafovutlarni tahlil qiladi, bu esa madaniy inqirozning ko'lamini global darajada ko'rsatadi.²²

Manuel Castells o'zining "The Information Age" asarida axborot jamiyatida tarmoq orqali shaxsiy va madaniy identitetning zaiflashishini ko'rsatadi. Castellsga ko'ra, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi shaxsni an'anaviy madaniy ildizlaridan ma'lum darajada uzoqlashtiradi. Global tarmoqlar doirasida shakllanadigan yangi madaniy tajriba esa shaxs identikligini murakkablashtiradi. Bu jarayonda shaxs identikligi - insonning o'zligini anglashi, o'ziga xos xususiyatlarini belgilashi hamda boshqalardan farqliligini namoyon etuvchi ichki psixologik va falsafiy holat sifatida - ko'p qatlamli, o'zgaruvchan va dinamik xususiyat kasb etadi.²³ Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan global trendlar va standartlashgan kontent shaxsning milliy hamda mahalliy madaniy qadriyatlariga bo'lgan bog'liqligini susaytiradi, natijada yoshlar orasida madaniy identiklik inqirozi kuchayadi. Shu bilan birga, M. Castells tarmoq jamiyati sharoitida axborotning jadal tarqalishi orqali madaniy stereotiplarning shakllanishini ta'kidlaydi; mazkur jarayon esa madaniy inqirozning zamonaviy ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.²⁴

²¹ Giddens A. *Modernity and Self-Identity*. — Cambridge: Polity Press, 1991. — B. 101–125.

²² Huntington S. F. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. — New York: Simon & Schuster, 1996. — B. 56–78.

²³ Castells M. *Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat*. II-jild: *Identiklik kuchi (The Information Age: Economy, Society and Culture. Volume II: The Power of Identity)*. — Oxford: Blackwell Publishers, 1997. — B. 6–10.

²⁴ Castells M. *Tarmoq jamiyatining yuksalishi (The Rise of the Network Society)*. — Oxford: Blackwell Publishers, 2010. — B. 54–60.

Bunday talqinlar shuni ko'rsatadiki, madaniy inqiroz - bu nafaqat jamiyatning ichki muvozanati buzilishi, balki global jarayonlar, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo o'zaro ta'sir orqali shakllanadigan murakkab fenomen hisoblanadi. Har bir olim va tarixiy shaxs o'z nuqtai nazarida madaniy inqirozning sabablarini va oqibatlarini tushuntiradi: Bauman qadriyatlar barqaror emasligini, Giddens shaxs identiklikning murakkabligini, Xantington madaniyatlar to'qnashuvini va Kastels tarmoq jamiyatidagi identiklik zaiflashuvini ta'kidlaydi. Ushbu talqinlar jamiyatning madaniy barqarorligini saqlash, yoshlar tarbiyasini shakllantirish va milliy identitetni mustahkamlashda zamonaviy ilmiy yondashuv sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida madaniy inqirozning oldini olish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Sh.M.Mirziyoyev nutqlarida "ma'naviy immunitet", "yoshlar tarbiyasi", "milliy identitetni asrash", "axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy barqarorlik" kabi tushunchalar takror-takror qayd etiladi.²⁵ Yangi O'zbekiston strategiyasiga ko'ra, jamiyatning madaniy yangilanishi yurt taraqqiyotining ajralmas omilidir. Ma'naviy merosni o'rganish, oiladagi tarbiyani mustahkamlash, yoshlar ongida tanqidiy fikrni rivojlantirish - madaniy inqirozda barqarorlikning asosiy mezonlari sifatida qaraladi.²⁶

Madaniy inqirozning zamonaviy ko'rinishlaridan yana biri - avlodlararo tafovutning kuchayishi. Raqamli avlodning tezkor fikrlashi, fragmentar dunyoqarashi, vizual axborotga haddan tashqari bog'liqligi an'anaviy oilaviy tarbiya, qadriyatlar uzviyligi bilan nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Bu esa katta avlodning tajribasi yoshlar ongiga yetib bormasligi, ma'naviy merosning uzilishi xavfini tug'diradi.

So'nggi ilmiy tadqiqotlarda madaniy inqirozning psixologik va neyrobiologik omillari ham aniqlanmoqda. Xususan, yoshlar ongida axborot ortiqchaligining kuchayishi prefrontal korteks faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, qaror qabul qilish hamda empatiya qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan ijtimoiy taqqoslash mexanizmi psixologik stress darajasini oshiradi va madaniy beqarorlikni yanada kuchaytiradi. Mazkur jihatlar avvalgi ilmiy adabiyotlarda nisbatan kam yoritilgan masalalar sirasiga kiradi. Umuman olganda, madaniy inqiroz - bu jamiyatni yangilanishga undovchi tabiiy jarayon hamdir. Falsafiy manbalarda inqiroz yangi sifat bosqichiga o'tishning zarur sharti sifatida talqin qilinadi. Madaniy inqirozga qarshi kurash birgina ma'naviy targ'ibot bilan emas, balki ta'lim, tarbiya, ideologiya, madaniyat va axborot siyosatining kompleks tizimi orqali amalga oshirilishi lozim. O'zbekistonning bugungi islohotlar siyosati ham aynan shu yo'nalishga qaratilgan.

²⁵ Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga Murojaatnomalar, ma'ruzalar va nutqlar to'plami. — T.: O'zbekiston, 2017–2024. — B. 23–25.

²⁶ Yangi O'zbekiston strategiyasi. — T.: O'zbekiston, 2023. — B. 12–14.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Murojaatnomalar, ma'ruzalar va nutqlar to'plami (2017-2024). - Toshkent: Prezident nashriyoti, 2017-2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2020. - 408 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Falsafiy ensiklopediya. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010.
5. „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“. - Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 704 b.
6. Avesto: Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. - Toshkent: Sharq, 2001. - 383 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
8. Platon. Davlat. Tarjimon: Olimjon Xoldorov. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. - 444 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat siyosati bo'yicha davlat hisobotlari (2022-2025). - Toshkent: Vazirlik nashrlari, 2022-2025.
10. Mommsen T. The History of Rome. - London: Routledge, 1908. - 600 b.
11. Boccaccio, G. The Decameron. - London: Everyman, 2009. -696 b.
12. Burckhardt J. The Civilization of the Renaissance in Italy. - London: Penguin, 1990. -400 b.
13. Giddens A. Modernity and Self-Identity. - Cambridge: Polity Press, 1991. - 264 b.
14. Castells M. Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat. II-jild: Identiklik kuchi (The Information Age: Economy, Society and Culture. Volume II: The Power of Identity). - Oksford: Blackwell Publishers, 1997. - 350 b.
15. Castells M. Tarmoq jamiyatining yuksalishi (The Rise of the Network Society). - Oksford: Blackwell Publishers, 2010. - 432 b.
16. Ibrohimov, A. Jamiyatning inqirozlari va rivojlanish jarayonlari. - Toshkent: "Fan va texnika", 2008. - 200 b.